
Rishtonda "Yashil makon" umummilliy loyihasi doirasida dolzarb 40 kunlik tadbiri boshlandi

Mamlakatimizda "Yashil makon" dolzarb 40 kunlik doirasida yil yakuniga qadar 75 million dona mevali va manzarali ko'chatlar ekish ko'zda tutilgan.

Ko'chatlarni ekishda e'tibor qaratadigan jihatlar ham bor. Bunda esa mutaxassis tavsiyasi, fikri muhim ahamiyatga ega. Shundan kelib chiqib, mavsum davomida mutaxassis va olimlar, tajribali bog'bonlarning tavsiyalarini ham berib borish rejalashtirildi.

Yuqoridagilardan kelib chiqib Rishton tumanida dolzarb 40 kunlik boshlab yuborildi. Jumladan, tumanimizda aktsiya doirasida yashil makon yaratish, daraxtlarni ekish bo'yicha amaliy seminar o'tkazilib, manzarali daraxtlar, gullar ko'chatlari ekildi.

Rishton tumani hokimligi axborot xizmati

2022-10-20 17:00:41